O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 13 - sentabr 233-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 avgustdagi 426-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 avgustdagi **“Toshkent tumani hududidagi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qoshinlariga qarashli yer maydonini davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida”gi 426-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6-,25-moddalariga asosan qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 avgustdagi **“Toshkent tumani hududidagi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qoshinlariga qarashli yer maydonini davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida”gi 426-10-0-Q/23-sonli qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, “Gultepa” маҳалласи hududidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 2611q-konturida 0,75 gektar va 1703q-konturlarida joylashgan 0,16 gektar jami 0,91 gektar yer maydonlari davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari Sh.Salixov va S.Mirsagatov, Davlat Kadastr Palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining tuman filiali raxbari (J.Abzalov) davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonlarini belgilangan maqsadlarda foydalanish choralarini ko‘rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining Toshkent tumani filiali (J.Abzalov) tegishli hisobotlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**